O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi

# YOSHLAR OVOZI

Молодежь Узбекистана

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

№ 30 (16436)
2021-YIL
25-AVGUST,
CHORSHANBA

WWW.YOSHLAROVOZI.UZ · YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU · @YOSHLAROVOZIUZ · @YOSHLAROVOZI

IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, ADABIY-BADIIY GAZETA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING 30 YILLIGIGA

## VALIYEVLAR OILASI
## 6 nafar bolani asrab oldi








***"Sen yetim emassan" filmini ko'rmagan odam kam topilsa kerak. Film urush yillarida 13 bolani va urushdan so'ng yana 3 bolani o'z tarbiyasiga olgan toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudovlar oilasi haqida. Urush yillarida insonparvarlikning eng yuksak namunasini ko'rsatgan oilaning xotirasi bugun hech bir insonning yodidan chiqmaydi. Hatto ularga izdosh bo'lib, sag'ir bolalarni o'z qaramog'iga olayotgan oilalar ham bor. Mana, yaqinda Nabijon Valiyevlar oilasi 6 nafar bolani asrab oldi.***

Davomi 2-sahifada.

24 OKTABR 2021-YIL O'ZBEKISTON PREZIDENTI SAYLOVI

## SAYLOV KAMPANIYASI KENG QAMROVLI JARAYON

***2021-yil 24-oktabr kuni mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tadi. Xalqimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi ushbu tadbirni yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish ishlari qizg'in davom etmoqda.***

Xususan, Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylov kampaniyasi boshlanganligi e'lon qilinganidan buyon o'tgan qisqa vaqt ichida, birinchidan, mamlakatimiz siyosiy maydonida faoliyat olib borayotgan beshta siyosiy partiyaning vakolatli vakillari ro'yxatga olinib, ularga mandatlar topshirildi. Siyosiy partiyalarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishtirok etish uchun ijozat berilib, ularning vakolatli vakillariga ro'yxatga olinganlik guvohnomasi va imzo varaqalarining blankalari topshirildi.

Saylovda ishtirok etuvchi partiyalarning ro'yxati arizalarning kelib tushishi navbati tartibida markaziy matbuotda e'lon qilindi. Hozirgi vaqtda siyosiy partiyalar tomonidan mamlakatimiz hududlarida, fuqarolarning ish, xizmat, o'qish, yashash joylarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga bo'lajak nomzodlarni qo'llab-quvvatlovchi saylovchilarning imzolarini to'plash jarayoni davom etmoqda.

Ikkinchidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri chegaralari doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi 14 saylov okrugi tuzildi. Saylov okruglarining ro'yxatlari ularning chegaralari, saylovchilar soni va okrug saylov komissiyalarining joylashgan yeri ko'rsatilgan holda matbuotda e'lon qilindi.

Davomi 3-sahifada.

## YANGI O'ZBEKISTON VA YANGI AVLOD YOSHLARI



**Bahodirjon SHERMUHAMMADOV, Farg'ona davlat universiteti rektori**

***Bugun yoshlarimiz haqida so'z ketar ekan, yaqinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga bergan javoblarini alohida e'tirof etish joiz.***

Davlat rahbari o'z intervyusida yoshlarimizga xalqning asosiy tayanchi va suyanchi sifatida qat'iy ishonch bildirayotgani, keng ko'lamli islohotlarni samarali amalga oshirishda ular hal qiluvchi kuch ekanligini ta'kidlagani – kelajak vorislariga ko'rsatilayotgan yuksak e'tiborning yaqqol ifodasidir.

Darhaqiqat, yoshlar manfaatlari davlat siyosatining eng ustuvor maqsadlariga aylangan holda, mamlakatda tez fursatlar ichida yoshlar masalalarida katta islohotlar amalga oshirildi.

Davomi 8-sahifada.



# VALIYEVLAR OILASI

## 6 nafar bolani asrab oldi

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



Bu oila bilan bog'lanish juda qiyin bo'ldi. Dastlab viloyat, keyin tuman va nihoyat MFY orqali Valiyevlar bilan bog'landik. Farg'ona tumani "Chekshura" mahallasidagi Yangiobod ko'chasida istiqomat qiluvchi Valiyevlar oilasi 2021-yil 9-avgustda Prezident raisligida bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishidan so'ng uch yillik orzusiga yetishdi. Uch yil davomida deyarli hamma idoralarga farzand asrab olish niyati borligini bildirib murojaat qilgan, ammo ularning 4 nafar farzandi borligi uchun buning iloji bo'lmagan.

Mahalla raisi Dildora opa Jamolovaning aytishicha, "Valiyevlar mahallada hammaga o'rnak bo'la oladigan oilalardan biri, farzand asrab olish istagi avvaldan bo'lgan va xolis niyati ularni shu kunlarga yetkazdi. Bolalarimizning qadami qutlug' kelib, mahallamiz obodonlashtirildi. Boshqa oilalarda ham farzand asrab olish istagi paydo bo'ldi. Bu oilaning qilgan xayrli ishi ko'plab shunday xayrli ishlarga sababchi bo'ldi".

Oila boshi Nabijon aka Valiyev tadbirkor, oila bekasi Ziyoda opa Valiyeva tarix o'qituvchisi, hozir Farg'ona tumanidagi 4-maktabda direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari bo'lib ishlamoqda. Oila boshlig'i ishda bo'lgani sabab suhbatni Ziyoda opa bilan davom ettirdik.

**– Ziyoda opa, boshlagan xayrli ishingiz davomiy bo'lsin. Bolalarga mehringiz bo'lakcha ekan. Farzand asrab olish niyati qachon, qanday paydo bo'lgan?**

– Sizga aytsam, onam juda mehribon ayol edi. Oilada 5 farzad bo'lganmiz, bizni otasiz katta qilgan. Yonimda shunday mehribon onam bo'lsa ham, hayotda otamning qadri juda bilingan. Hozir yoshim 40 ga borayotgan bo'lsa-da, qaniydi otam bo'lsa, deb o'kinaman. Endi o'zingiz o'ylab ko'ring, bolalar uyidagi bolalar ham otasiz, ham onasiz o'smoqda. Kerak bo'lsa, yillab kutishadi kim kelarkin, qanday yaqinim kelarkin, deb! Shularni o'ylab, menda shu niyat paydo bo'lgan. Yana maktabda tadbirlarda bolalar uyiga, muruvvat uyiga o'quvchilarim bilan ko'p boraman. Ayniqsa, sho'x, quloqsiz o'quvchilarim bo'lsa, ularni muruvvat uyiga olib boraman. Tengdoshlarini ko'rib, sog'lomligiga, yaqinlari yonida ekanligiga shukr qilsin, yaxshi o'qisin degan maqsadda, o'sha bolalar rostdan ham o'zgarib qolishadi. Baribir har bir bolaga ota-ona mehri kerak.

**– Turmush o'rtog'iz bu fikrni qo'llab-quvvatladimi?**

– Albatta, ularga ham avvaldan aytib yurardim. Bitta orzum mehribonlik uyidan bola asrab olish deganimda, mayli agar shu bilan baxtli bo'lsangiz, bajonidil deb, men bilan birgalikda harakat qildi. Farzandlarimga avvaldan aytib yurardim, ular ham qachon olib kelamiz deb ko'p so'rashar edi. 5 nafar bola asrab olaman, deb ko'p gapirardim, shunda bolalarim: "6 nafar asrab olaylik, juft bo'ladi", deyishdi. Shu bilan mana 6 nafar bolani o'z oilamizga qabul qildik. Ular har xil millat vakillari, ammo hammasi bir-biri bilan kelishib, yaxshi muomalada o'ynab yurishadi.

**– Ko'p kuzatganmiz, ba'zan o'z farzandimni boqa olmayapman, deb noliydiganlar, yaqinlarining farzandlarini uyiga sig'dirmaydiganlar ham topiladi...**

– To'g'ri. Yaqinda mehribonlik uyidagi tanishim bilan gaplashib qoldim. Mehribonlik uyidagi bolalarni oilalarga tarqatish bo'yicha topshiriq asosida 18 yoshga to'lgan qizni qarindoshlariga olib borishganda, ular qabul qilmaganini aytdi. O'zimga olib kelmabsiz-da, dedim. Hali ham kech emas, olib kelinglar, jon deb oilamga qabul qilaman, dedim. Har xil inson borda, farzandlarini sotayotgan, ko'chalarga tashlab ketayotgan... unaqa ayollarga faqat achinaman. Chunki Allohning ne'matini, bir zarradan paydo qilgan mo'jizani ko'chaga tashlab, uvol qilishini ko'rib rahmim keladi. Kechirilmaydigan gunohlardan biri bo'ladi bu. O'zbek mentalitetiga umuman to'g'ri kelmaydigan holat. Arzimagan sabablarni deb farzandlarini xor qilmaslikni so'rardim. Alloh har bir bandasini rizqi bilan yaratadi. Shuni unutmaslik kerak.

**– Farzandlaringiz oilaga ko'nikib qolishdimi?**

– Ha, ancha ko'nikib qolishdi. Biror kim ko'chadan kelsa, "Onajon, bizni olib ketib qolmaydimi?" degan hadik bilan pichirlashadi qulog'imga. "Yo'q, endi meni bolalarimsiz, men sizlarni zo'rg'a topgan bo'lsam!" desam, "Boshqa hech kimga bermaysizmi?" deb qayta-qayta so'rashadi. Ular avval marg'ilonda o'qigan, hozir o'zimizga yaqin maktabga ko'chirish bo'yicha hujjatlarini tayyorlayapmiz. Nasib bo'lsa, to'garaklarini ham gaplashib keldim. Mana, Akbarjon (asl ismi Artur, hamma o'rtoqlarining ismi o'zbekcha bo'lgani uchun meni ham Akbar deb chaqiringlar dedi) fortapiano chalishga qiziqadi. Uning qiziqishini inobatga olib, to'garak gaplashdik. Farhodjon futbolga qiziqadi. Unga ham sharoit yaratib beramiz. Hammasi oilamizga tez ko'nikib ketishdi. Biz ham ularni o'z farzandlarimizdek ko'rib, oilamizda o'z o'rnini topishiga ko'maklashyapmiz.

*P.S.: Hadislarda shunday deyiladi: "Sahl ibn Sa'd rivoyat qiladi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Men va yetimning kafilini olgan odam ikkimiz jannatda yonma-yon yashaymiz", deb ko'rsatkich va o'rta barmoqlarini juft qilib ko'rsatdilar". Darhaqiqat, har bir insonga hayotda o'z o'rnini topib, yaxshi tarbiya olishida oilaning o'rni beqiyos. Ushbu oilaning qilgan xayrli ishi davomiy bo'lsin!*

**Mashhura NASRIDDINOVA suhbatlashdi.**






*Vatanimiz mustaqilligining shonli 30 yillik bayrami arafasida "O'zbekiston" nashriyoti tomonidan "Yangi O'zbekiston" kitob-albomi nashrdan chiqarildi. Ushbu muazzam majmuada istiqlol yillarida, ayniqsa, keyingi besh yilda yurtimizda yangi davlat va jamiyat qurish, xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan Yangi O'zbekiston g'oyasini amalga oshirish yo'lida olib borilayotgan ulkan ishlar haqida atroflicha hikoya qilinadi.*

# YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YORQIN SAHIFALARI

Kitob-albom mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Xalqimizning beqiyos jasorati va matonati bilan qo'lga kiritilgan, bizning milliy davlatchiligimizni, insoniy qadr-qimmatimiz, g'urur va sha'nimizni, din-u diyonatimizni tiklab bergan O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi oradan qancha yillar, asrlar o'tsa-da, jonajon Vatanimizning shonli tarixida hamisha eng yorqin sahifa bo'lib qoladi" degan samimiy so'zlari bilan boshlanadi.

Darhaqiqat, mard va oliyjanob xalqimiz o'zining ulkan salohiyati, mustahkam irodasi va matonati bilan mustaqillik yillarida bosib o'tgan o'ta murakkab va ayni paytda sharafli taraqqiyot yo'li, qo'lga kiritgan mislsiz yutuq va marralari kitob-albomning asosiy ma'no-mazmunini tashkil etadi. Uni varaqlar ekanmiz, yaqin tariximizda, mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi yangi bosqichida kechgan shiddatli voqealar, el-yurtimiz mardona yengib o'tayotgan turli sinov va mashaqqatlar, erishilgan yutuq va natijalar beixtiyor birbir ko'z o'ngimizdan o'tadi.

Aynan mustaqillik tufayli yurtimiz tarixan qisqa davrda ilgarigi iqtisodiyoti bir tomonlama shakllangan, qoloq o'lkadan barcha sohalarda jadal rivojlanib, fuqarolarning hayot darajasi, siyosiy-ijtimoiy faolligi, ong-u tafakkuri tobora yuksalayotgan, jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida uzoq-yaqindagi barcha mamlakatlar bilan do'stlik va hamkorlik munosabatlarini keng miqyosda olib borayotgan zamonaviy, ochiq va demokratik davlatga aylangani aniq tarixiy misollar, arxiv hujjatlari hamda tahliliy materiallar orqali ko'rsatib berilgan.

Kitob-albomda "Milliy taraqqiyotimizning yangi davri" degan alohida bo'limda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida mamlakatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviyma'rifiy hayotini tubdan yangilash, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan g'oyani real voqelikka aylantirish, yangi uyg'onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar jarayoni, ularning dastlabki natijalari, shahar va qishloqlarimizning bugungi go'zal qiyofasi, davrimiz qahramonlari, shu zaminda yashab kelayotgan yurtdoshlarimiz hayotidagi katta ijobiy o'zgarishlar, yangicha qadriyatlar turli rakurs va bo'yoqlarda batafsil aks ettirilgan.

Yangi O'zbekistonni barpo etish maqsadida hayotimizning barcha jabhalarini erkinlashtirish, iqtisodiyot va uning tarmoqlarini, xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni qisqartirish, yangi ish o'rinlari va daromad manbalarini yaratish, inson huquq va manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotgani, davlat va jamiyat boshqaruvi, sud-huquq, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, ma'naviyat, adabiyot, san'at, sport, tashqi siyosat sohalaridagi tub o'zgarishlar, jamiyatimizda tinchlik va barqarorlik, fuqarolar va millatlararo hamjihatlik muhiti mustahkamlanib borayotgani, ularning mazmun-mohiyati va ahamiyati yorqin lavhalar, jonli tasvirlar, ekspert va tahlilchilarning xolis xulosalari asosida qiziqarli tarzda yoritib berilgan.

Tomchida quyosh aks etganidek, ushbu kitob-albomdan o'rin olgan har bir dalil va ma'lumot, surat va lavha bunyodkor xalqimizning kuch-g'ayrati va salohiyati bilan erishilgan, barchamiz uchun g'oyat qadrli bo'lgan yuksak marralar xususida, dunyoda yagona, aziz va mo'tabar ona diyorimiz – Yangi O'zbekistonimiz haqida hikoya qiladi.

Hech shubhasiz, har bir sahifasida Vatanimizning nurli bir manzarasi aks etgan ushbu nashr o'quvchilarda yorqin taassurotlar uyg'otib, ularga bugungi taraqqiyotimiz haqida yanada keng ma'lumotlar beradi, qalblarimizda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yuksaltirishga xizmat qiladi.

**O'zA**

# SAYLOV KAMPANIYASI KENG QAMROVLI JARAYON

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o‘tkazuvchi 14 okrug saylov komissiyalarining 266 nafar a’zodan iborat shaxsiy tarkibi tasdiqlandi. Ular uchun Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlangan “Saylov komissiyalari a’zolarining malakasini oshirishni tashkil etish Konsepsiyasi”ga muvofiq Davlat boshqaruvi akademiyasi va Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o‘qituvchilaridan iborat ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv dasturi va o‘quv-uslubiy materiallar asosida yuqori malakali ekspertlar tomonidan ikki kunlik seminar-trening mashg‘ulotlari o‘tkazildi.

O‘quv mashg‘ulotlari davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, okrug saylov komissiyalari faoliyatini tashkil qilish, saylov komissiyalarining vakolat va vazifalari, okrug va uchastka saylov komissiyalari binolari va ovoz berish xonalarini jihozlash, saylovchilar ro‘yxati bilan ishlash kabi dolzarb mavzular qamrab olindi.

Mashg‘ulotlar yakunida Markaziy saylov komissiyasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o‘tkazuvchi okrug saylov komissiyalarining 266 nafar a’zosiga guvohnomalar, okrug saylov komissiyalarining muhri va konselyariya mahsulotlari topshirildi.

Uchinchidan, mahalliy va xorijiy jamoatchilik, shu jumladan, saylovchilarni saylov komissiyalari va boshqa tashkilotchilari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida keng xabardor etish maqsadida Markaziy saylov komissiyasining Matbuot markazi faoliyati yo‘lga qo‘yildi, “saylov.uz” yangi sayti, “saylov-2021” veb-portali, “saylov-2021” mobil ilovasi, “Saylov-2021 xabarlari” nomli axborot-tahliliy ko‘rsatuvi ishga tushirildi.

O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, O‘zReport, “Zo‘rTV”, “Dunyo” axborot agentligi, “Bugun.uz”, “Nova24.uz”, “Kun.uz” internet nashrlari, “Xalq so‘zi” va “Народное слово” gazetalari kabi ellikdan ortiq mahalliy OAVda faoliyat yurituvchi 757 nafar, shuningdek, Afg‘oniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Pokiston, Turkiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya, Xitoy, Eron, Ozarbayjon kabi xorijiy davlatlar OAVda faoliyat yurituvchi 48 nafar jurnalist akkreditatsiyadan o‘tkazilib, guvohnomalar taqdim etildi. Ommaviy axborot vositalari vakillarini akkreditatsiyadan o‘tkazish ishlari davom etmoqda.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishtirok etish uchun 21 xalqaro tashkilot, jumladan, YXHTning Parlament Assambleyasi va Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha Byurosi, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi va MDH Parlamentlararo Assambleyasi, ShHT, IHT, Turkiyzabon davlatlar hamkorlik kengashi, Butunjahon saylov organlari assotsiatsiyasiga, 28 xorijiy mamlakat saylov organlari va 48 davlatdan 225 nafar xalqaro kuzatuvchiga taklifnoma yuborildi.

Beshinchidan, Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlangan “Saylov komissiyalari a’zolarining malakasini oshirishni tashkil etish Konsepsiyasi”ga muvofiq mamlakatimiz hududlarida, tuman va shaharlardagi sektorlar kesimida uchastka saylov komissiyalarining raisi, rais o‘rinbosari va kotibligiga nomzodlar uchun interfaol usullarda o‘tkazilayotgan seminar-treninglarning to‘rtinchi bosqichi qizg‘in davom etmoqda.

Seminar-treninglarning birinchi bosqichida tinglovchilarga milliy saylov qonunchiligi va



xalqaro saylov standartlariga oid o‘n ikkita dolzarb mavzuda nazariy bilimlar berildi. Ikkinchi bosqichda nazariy bilimlar bilan birgalikda amaliy ko‘nikmalar shakllantirildi. Uchinchi bosqich “trener-tinglovchi yuzma-yuz savol-javobi” shaklida o‘tkazilib, birinchi va ikkinchi bosqichda olingan nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar mustahkamlandi.

Navbatdagi to‘rtinchi bosqichda bevosita uchastka saylov komissiyasi tomonidan amalga oshiriladigan ishlarga oid oltita eng muhim mavzu tanlab olindi va ushbu mavzularga oid videoroliklar tayyorlandi. Bu bosqichdagi mashg‘ulotlarda egallangan nazariy bilimni namunaviy shaklda tashkil etilgan saylov uchastkalarida uchastka saylov komissiyasi bajaradigan ishlar yaratilgan videoroliklarni ko‘rish va bevosita bajarish orqali mustahkamlanishiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Oltinchidan, Markaziy saylov komissiyasining 20-avgust kuni bo‘lib o‘tgan navbatdagi yig‘ilishida turli masalalar qatori saylovchilarga yanada qulaylik yaratish maqsadida ishlab chiqilgan “Saylov uchastkasini aniqlash va o‘zgartirish bo‘yicha interfaol xizmat ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlandi.

Nizomga muvofiq, Interfaol xizmatdan doimiy yoki vaqtincha yashash joyi manziliga ega bo‘lgan, saylov kuniga qadar yoki saylov kuni o‘n sakkiz yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari foydalanishlari mumkin.

Saylovchi saylov uchastkasini aniqlash bo‘yicha interfaol xizmatdan elektron tarzda foydalanish uchun O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro‘yxatdan o‘tib, saylov uchastkasini aniqlash xizmatini tanlaydi, unga biometrik pasport yoki identifikatsiya ID-kartasining seriyasi va raqamini hamda tug‘ilgan sanasini kiritadi. Shundan so‘ng saylovchining ushbu ma’lumotlari Saylov jarayonini boshqarish axborot tizimida shakllantirilgan Saylovchilarning yagona elektron ro‘yxatidagi ma’lumotlar bilan avtomatik tarzda tekshiriladi. Ma’lumotlar mos kelgan taqdirda saylovchiga saylov uchastkasi haqidagi ma’lumot taqdim etiladi.

Saylovchi O‘zbekiston Respublikasi Saylovchilarining yagona elektron ro‘yxatidagi saylov uchastkasi haqidagi ma’lumotlar bilan uning doimiy yoki vaqtincha yashash joyi manzili o‘zaro nomuvofiq bo‘lgan taqdirda saylov uchastkasini o‘zgartirishi mumkin. Saylov uchastkasini o‘zgartirish saylovga oltmish kun qolganidan boshlab to besh kun qolguniga qadar amalga oshirilishi mumkin. Boshqa shaxsga tegishli ma’lumotlarni ko‘rsatgan holda saylov uchastkasini o‘zgartirish bo‘yicha interfaol xizmatdan foydalanish taqiqlanadi. Markaziy saylov komissiyasining rasmiy veb-sayti orqali saylov uchastkasini o‘zgartirish bo‘yicha interfaol xizmatini ko‘rsatish Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga havola qilish yordamida amalga oshiriladi.

Interfaol xizmat yordamida o‘zgartirilgan saylov uchastkasini saylovchining roziligisiz o‘zgartirish va saylovchilar ro‘yxatiga tuzatishlar kiritish mumkin emas. Interfaol xizmat ko‘rsatilganligi uchun yig‘im undirilmaydi.

Ushbu xizmatdan foydalanish istagida bo‘lgan saylovchilar “saylov.uz” saytida joylashtirilgan Markaziy saylov komissiyasining 2021-yil 20-avgustdagi 1101-sonli qarori orqali xizmatdan foydalanishi tartibi bilan batafsil tanishishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy saylov komissiyasi va saylov jarayonining boshqa tashkilotchilari tomonidan Prezident saylovini yuqori saviyada tashkil etish, saylovchilarning konstitutsiyaviy huquqlaridan erkin foydalanish va axborot olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, saylov jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalari va interfaol davlat xizmatlarini samarali joriy etish ishlari faol davom etmoqda.

Saylov kampaniyasi jarayonlarida amalga oshirilayotgan tayyorgarlik ishlari va saylovchilarga yaratilayotgan keng imkoniyatlardan fuqarolarning xabardor bo‘lishi, saylov kuni ovoz berishda faol ishtirok etishi, konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalanishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘lidagi insonparvar islohotlarning bardavom bo‘lishiga xizmat qiladi.

**Xudoyor MAMATOV,**
**Markaziy saylov komissiyasi kotibiyati rahbari, professor.**
**O‘zA**

OGOHLIK

# Sigaret qoldiqlari

***Serquyosh yurtimizda har bir fasl kabi yoz ham o‘ziga xos tarovatga ega. Salqin ichimliklar yoki muzqaymoq bilan issiq hovurini yengarkanmiz sal narida kimdir shu issiqda ham sigareta tutatayotganiga ko‘zimiz tushadi.***



Chekuvchining eng xavfli jihatlaridan biri — sigaretani chekib bo‘lgach, o‘chirmasdan duch kelgan joyga uloqtirib yuborishidir. Yoz faslida yong‘inlarning ko‘pchiligi ayni shu sabab bilan yuzaga keladi. Issiqda mayda o‘tlar qovjirab turgani, birovlar e’tiborsizlik bilan tashlab ketgan tez yonuvchan chiqindilar, quruq xashaklar “tilsiz yov”ning tez tarqalishiga olib kelishi shubhasiz. Biz yurtdoshlarimizni yong‘in keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan har qanday holatga qarshi kurashishga chorlaymiz.

O‘zimiz yong‘in xavfsizligi qoidalarga rioya etishimiz bilan birga, atrofdagilarimizni ham shunga undashimiz, farzandlarimizga bularni o‘rgatishimiz zarur. Biz yong‘in xavfsizligi xizmati xodimlari ham hamshaharlarimizni shu kabilarga e’tibor berishga, ochiq olovdan foydalanganda esa xavfsizlik choralarini kuchaytirishga chaqiramiz.

**Abbos PO‘LATOV,**
**Yakkasaroy tumani FVB inspektori, katta serjant**



JIZZAX VILOYAT XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI



# JIZZAX VILOYATI XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI JAMOASI

*Butun O'zbekiston xalqini yaqinlashib kelayotgan Mustaqillik kuni bilan samimiy muborakbod etadi.*

*Siz, azizlarga mustahkam sog'lik, Vatanimiz ravnaqi yo'lidagi fidokorona xizmatlaringizda muvaffaqiyatlar tilab qoladi!*



®

УЗБЕКИСТОН ИФТИХОРИ







# Я – восходитель!

***Учительница в упоении рассказывала о Джомолунгме, вызывая блеск в глазах у отважных подростков, мечтающих покорить самую высокую вершину мира. Многие в мыслях взбирались на кручи в виде трехгранной пирамиды.***

***Не был исключением Сергей. Уж кто-кто, а он знал, как умеет увлечь экзотикой его мама-географ. Тогда-то и дал шестиклассник себе обещание в 37 лет побывать на Эвересте. Кстати, после того урока мальчишек нельзя было смутить коварным вопросом: «Чем отличается Эверест от Джомолунгмы?» Весело откликались: «Одно и то же!»***

**ПО ЮЖНОМУ СКЛОНУ**

Что касается данного слова, Сергей Денисенко его с честью сдержал 1 июня 2021 года, водрузив на Эвересте флаг Узбекистана. Восхождение этот сильный духом человек посвятил 30-летию независимости республики. Незабываемое событие стоило полутора лет подготовки, включающей бег на длинные дистанции, плавание, езду на велосипеде. Чтобы подняться на высоту 8 848 метров, нужна особая выносливость. К тому же по более сложному для восхождения южному склону. Что говорить о маршруте, когда сделать фотографию на финише стоило немалых трудов: руки сковывает мороз, буйствует ветер, вырывая телефон. Мешают победителю запечатлеть желанную точку детской мечты.

В руках настоящего сына своей страны трепещет флаг, покрытый изморозью. Обветренное лицо в инее, а глаза светятся счастьем: сумел, дошел, поздравил Узбекистан с круглой датой суверенитета!

За покорением «Вершины мира» – неустанная работа над собой. Дашь слабинку на тренировках – маршрута не одолеешь. Сколько их было в истории «Божественной матери жизненной энергии» (перевод названия Джомолунгма), случаев, когда не хватало сил на последний километр, когда приходилось сдаваться в заветной близости от цели! А тут еще погода решила испытать стойкость непрошеных гостей. Пришлось в экспедиции пробыть два месяца, хотя при благоприятных условиях достаточно 40 дней. Один из самых тяжелых участков – ледопад Хумблу. Он находится в постоянном движении, нередки обвалы и сходы лавин.

– Находишься в своеобразном природном казане, – поясняет совершивший восхождение. – Со всех сторон горы, как стенки гигантской посуды. Когда выходит солнце и отражается от скал, начинаешь поджариваться. Как зирвак для плова. Идешь при 45-градусной жаре, с двух сторон от пекла сходят лавины. На пути от одного лагеря до другого свои сложности. Изнуряют перепады температур: днем больше 40 жары, ночью – до 30 градусов мороза. На высоте острее ощущается жажда, которая усиливается, когда надеваешь кислородную маску.



– Зато и эмоции не сродни земным, – продолжает Сергей. – Огромное чувство гордости за страну. Я знал, что по южному склону никто из наших еще не ходил. Понимал, что стал первопроходцем. Имел дополнительную мотивацию для восхождения.

**НА ВЕРШИНЕ МИРА**

Вот оно, состояние, когда кажется, что вся земля на ладони. Счастье переполняет. Ради него стоит идти, ползти, карабкаться...

– Твердо стоишь всем ветрам назло, – признается покоривший Эверест, – и думаешь: «Я сделал это! Принимай работу, страна!» В Год поддержки молодежи и укрепления здоровья населения с тобой рядом надежда, что кто-то отвернется от гаджетов и посмотрит на красоту природы. Пусть его не потянет ввысь, но он увидит окружающий мир, наши горы, которые невозможно не любить. Загорится стремлением к высоким целям. Ведь вершина – необязательно самое высокое место в горной системе, это и задачи, которые с успехом решаешь.

Флаг Узбекистана в высочайшей точке Азии – это гордость за нашу страну и ее народ. Ведь это моя Родина, она меня взрастила, любовь к ней и семье помогала в пути.

А еще Сергей сказал, что там, на перекрестке ветров (шквал 35 метров в секунду), испытывал благодарность ко всем, кто помогал ему совершить восхождение. Ему, просто влюбленному в горы, даже не применяющему по отношению к себе слово «альпинист». Разве только в сочетании с прилагательным «промышленный». «Я – восходитель!» – с не меньшей гордостью именует себя Сергей Денисенко.

Спустившись на землю с небесной высоты, восходитель был тронут торжественной встречей, которую устроили ему земляки в Ташкенте. Самой высокой наградой стали присвоенное ему Президентом звание «Узбекистон ифтихори» и подаренный главой государства автомобиль Trailblazer. Сертификат пропагандиста здорового образа жизни позволит передавать опыт подрастающему поколению, продвигать идею активного движения и единения с природой.

**А КОРНИ ИЗ ДЕТСТВА**

В семье Денисенко нельзя было не влюбиться в горы. Если мать-географ без запинки характеризует особенности ландшафта, а отец выезжает в горные летние оздоровительные лагеря по работе, альтернативы нет. Разве Юсуфхона способна оставить равнодушным?! Увидел раз – прикипел сердцем.

– Дети, – вспоминает Сергей лучшие дни школьных каникул, – ходили в походы, где у них формировали туристические навыки, учили ориентироваться на местности, рассчитывать силы. Так я и полюбил горы. Как оказалось, навсегда. В спортивных секциях не занимался. Свои «отношения» с горами выстраивал самостоятельно, читая специальную литературу, через личный опыт.

Имея сертификат, подтверждающий допуск к работе на высоте, предприниматель совершенствует навыки своего главного увлечения. Специалист в сфере промышленного альпинизма с улыбкой называет себя «горным туристом». А героями считает тех, кто взошел на все 14 восьмитысячников или на семь высочайших вершин семи континентов. С огромным уважением относится к заслужившим звание «Снежный барс» – так называют альпинистов, покоривших самые высокие пики постсоветского пространства.

**ПЛОХИЕ ЛЮДИ В ГОРЫ НЕ ХОДЯТ!**

Любопытно было узнать, какой образ альпиниста, восходителя нарисует тот, кто недавно «на вершине стоял хмельной». Недаром в песне «Если друг оказался вдруг...» Владимир Высоцкий советует устроить парню проверку горами.

Ему вторит наш герой:

– Помимо того, что нужны смелость, выносливость, ловкость, готовность к риску, умение обращаться со снаряжением и прочие полезные качества, скажу главное: «Плохие люди в горы не ходят!» Те, кто подарил горам свою любовь, отличаются чистотой, открытостью, трепетным отношением к красоте природы. Они всегда придут на помощь.

Сергей Денисенко воспитывает хороших людей рядом с собой. Берет семью на простые маршруты, уводит от городской суеты к спокойствию, птицам, цветам, горным речкам и водопадам. Готов передать свое отношение к горам детям. Они пока еще маленькие, но дочка уже начинает понимать отцовскую страсть. На встрече в аэропорту сказала перед камерой: «Я сильно скучала и ждала папу с вершины». Посыл есть: чтобы не скучать, в дальнейшем отправляться в походы вместе.

**НА КОТОРЫХ ЕЩЕ НЕ БЫВАЛ**

Говорить с тем, кто занимается восхождением, о его мечтах – совершать путешествия в разные точки земного шара. С Сергеем Денисенко мы переносимся с континента на континент, потому что в каждой части света у него есть цель, вершина, которая его ждет.

– «Лучше гор могут быть только горы, на которых еще не бывал» – верное утверждение, – подчеркивает Сергей. – Мечтаю подняться на Эльбрус (Европа), Аконкагуа (Южная Америка), Денали (Северная Америка), Килиманджаро (Африка), Джаю (Океания), пик Косцюшко (Австралия), массив Винсона (Антарктида). В семи точках мира. Мечта дерзкая, но осуществимая. Однако для начала выполню более реальную программу. Хочу походить по нашим каньонным горам Сурхандарьи, Кашкадарьи, среди скал Пскемского и Чаткальского хребтов. Много есть вершин, куда взобраться просит душа. А к ее голосу нужно прислушиваться.

**Ольга АЛЕКСАНДРОВА**






# ИЗМЕНЕННЫЙ МАРШРУТ, СТАВШИЙ СУДЬБОЙ

*Пандемия коронавируса изменила мир. Появилась и соответствующая мера времени – «до короны», если говорится о нормальном течении событий, – без страха заразиться в салоне автобуса или метро, в супермаркете или на концерте. У каждого своя «ковидная» история, а кто-то вписал в общую историю свою строку.*

*И когда этот кто-то молод, полон сил и идей, о нем хочется рассказать всем. Поэтому сегодня у нас в гостях Диёра ДАЛИМОВА, сотрудник Центра передовых технологий при Министерстве инновационного развития, состоявшая в команде по разработке отечественных тест-систем для выявления COVID-19.*



## НАШ СОВРЕМЕННИК

**– Наверное, с детства готовили себя к особой миссии? Обожали химию и биологию?**

– Будущее с биотехнологиями точно никак не связывала. Училась в спецклассе с математическим уклоном в столичной школе №110, а любовь к царице наук рисовала профессию экономиста. И в лицее компьютерных технологий при Ташкентском государственном техническом университете усиленно занималась математикой и физикой, так сказать, строила прочный фундамент для поступления на экономический факультет.

Мама круто изменила мой «маршрут» на третьем курсе. Аргументированно переориентировала. Не давила, а доказывала, подводила к мысли, что стать биологом намного нужнее, актуальнее. Дедушкин брат, известный ученый-геолог, посадил меня рядом и провел беседу, рассеявшую почти все сомнения. «Только представь, – говорил он, – как интересно заниматься исследованиями, самому двигать науку». Об этой таинственной науке, открытиях, облегчающих жизнь, рассказывала мама. Не только рассказывала, но и приводила сотни примеров. Пришлось штудировать учебники по химии и биологии. Где-то за две недели до тестовых испытаний мама взяла меня в Париж на конференцию биологов. Впечатления помогли окончательно преодолеть сомнения и сделать выбор в пользу науки. В итоге поступила на биофак Национального университета Узбекистана.



**– Не удивлюсь, если студентка университета с фамилией Далимова стала объектом повышенного внимания. Разговоры об известных родственниках, протекции ранили?**

– С этой проблемой, к сожалению, сталкивалась не раз. Безусловно, горжусь своим ученым родом, исследовательскими генами, однако приходилось и приходится доказывать, что сама чего-то стою, а не иду по проторенной дороге. Никаких бонусов за счет фамилии не получала. Всегда много и упорно трудилась. Выигрывала зарубежные конкурсы. Думаю, этим доказала свою компетентность.

Год обучалась по гранту в университете немецкого города Штутгарта. Также прошла отбор по американской программе, где фамилия в принципе никакого значения не имела. В Германии на десять месяцев окунулась в такую атмосферу, какой и представить себе не могла. По сравнению с ней предвузовская подготовка казалась отдыхом. Отбор проходила на английском языке, а обучение велось на немецком. Пришлось учиться в магистратуре на английском. Я второкурсница, прослушавшая лишь фундаментальные дисциплины и минимум спецпредметов, а здесь биохимия, микробиология. Нужно было самостоятельно догонять программу, то есть перелопатить то, на что обычный студент тратит несколько лет. Изучать медицинскую микробиологию на английском языке, а это совсем другой уровень владения иностранным.

В полной мере ощутила, как важна поддержка, если тебе трудно. Тамошние однокурсники старались всячески помочь. Конечно, я со своим годом высшего образования была намного слабее немецких и зарубежных магистрантов, но они доброжелательно меня подтягивали. Там начала изучать немецкий язык. Учебный год в Германии стал для меня хорошей школой, проверкой на прочность.

На время обучения в University of Hohenheim оформила академический отпуск в НУУ. Пришлось учиться в бакалавриате пять лет. В конце третьего курса мама напомнила: пора задуматься о выпускной квалификационной работе. Так я попала в лабораторию судебно-биологической экспертизы ДНК Республиканского центра судебной экспертизы имени Хадичи Сулаймоновой, где наставники биохимики Сурайё Далимова, Гульбахор Умарова (преподаватели нашего факультета) и Дилобар Ахмедова способствовали моему профессиональному становлению. Всегда вспоминаю об этих специалистах высочайшей квалификации с благодарностью. Здесь получила хорошую практическую базу, научилась выделять ДНК, ставить ПЦР, анализировать результаты. Именно серьезная закалка и нужные навыки впоследствии стали «пропуском» в разработку тест-системы. Хотя почти с начала учебы была сотрудником Центра передовых технологий, и выпускную квалификационную работу, и магистерскую делала в лаборатории криминалистики. Магистерскую диссертацию об анализе полиморфизмов локусов (короткие тандемные повторы в ДНК) по регионам Узбекистана писала на английском языке.

Так что моя любовь к профессии рождалась в муках, в результате колоссальной работы над собой, преодоления трудностей. Подвизалась в разных направлениях (магистратуру окончила с отличием как биохимик, пробовала микробиологию, нравилась генная инженерия), в настоящее время работаю в лаборатории современной биотехнологии.

О неосуществленных экономических планах не жалею. Рада, что работаю в центре. Практически живу в нем. У меня замечательный наставник Владимир Цой, всегда направляет и помогает. Дело свое люблю. И эту любовь укрепляет интеллигентная атмосфера. Коллектив молодой, дружный, его отличает уважительное отношение друг к другу. Иногда устаю, буквально валюсь с ног, но утром снова тянет на работу.

**– Каково ваше участие в создании отечественной тест-системы для определения РНК коронавируса SARS-CoV-2, вызывающего острый респираторный синдром COVID-19? Как проходила апробация и как зарекомендовала себя разработка?**

– Была в команде молодых ученых, многие из которых прошли стажировку за границей. Под руководством кандидатов и докторов наук, профессоров сплотились для создания своего продукта, чтобы не зависеть от зарубежных систем тестирования. Инициатором и вдохновителем выступила наш директор Шахло Турдикулова, ученый, биотехнолог с большой буквы. Изучили множество материалов по теме и лишь потом приступили к экспериментальной части. Каждый день встречались для обсуждения, устраивали мозговой штурм, испещряли доску данными эксперимента, искали ошибки. Подробно анализировали, где и что происходит. Сопоставляли нашу систему с другими наборами. Полностью изолировались. Жили в гостинице неподалеку, часто ночевали на работе, ибо процесс требовал непрерывности. Сменяли друг друга. Коллеги сильно нас поддерживали, присылали еду. Возникали трудности с реактивами, а хотелось в ускоренном режиме создать собственную результативную систему.

Апробация шла довольно тяжело, потому что это единственная тест-система, разработанная в Узбекистане. Остальные завозились из других стран. Права на ошибку не было. Наш продукт предстояло зарегистрировать в фармкомитете, предварительно доказав: действительно работает и не выдает ложной информации. Проводили эксперименты в областной и республиканской СЭС. Набор работал хорошо, его стали закупать лаборатории.

Создали группу техподдержки. Если вдруг что-то не получалось на местах, консультировали сотрудников, объясняли причины, выезжали в лаборатории. Со временем все наладилось. Масштабы производства увеличились. Наша тест-система не уступает по эффективности импортным.

**– Немало подобных тестов разработано другими странами. Чем вызвана необходимость в создании отечественного продукта?**

– Да, их много. Однако сравнительно со спросом наблюдался дефицит, особенно в начале пандемии. Развитые страны стали в короткие сроки разрабатывать свои тест-системы, чтобы не зависеть от импорта. Это поддерживает и репутацию государства.

Отличительная особенность нашей разработки – анализ трех участков генома вируса в процессе полимеразной цепной реакции (ПЦР). Те, что были в распоряжении лабораторий до них, основывались на одном участке.



**– Как объяснить, что, сдавая мазки, пациенты в разных местах получали противоположные результаты? Есть такие, у которых признаки заболевания налицо, а тест отрицательный.**

– Это зависит от чувствительности самой системы, смотря какие наборы использовали те или иные лаборатории, клиники. Нельзя сбрасывать со счетов и человеческий фактор. Клетки, выстилающие слизистые дыхательных путей, смываются водой, каплями или назальными спреями. На них может повлиять ингаляция. У нас же многие начинают активно лечиться до постановки диагноза, используя десятки народных методов и самостоятельно назначая терапию. Ничего подобного делать нельзя за три часа до взятия мазка. Это со стороны пациента.

Значительно реже нарушается процедура взятия биоматериала, когда на зонд попадает недостаточное количество клеток. Допустим, не с должной ответственностью подходит к исследованию лаборант. Каждый случай индивидуален.

Ложноотрицательным может быть и результат, когда инфекция проникает вниз и идет поражение легких. Вирус находится в верхних дыхательных путях только в первые дни.

Запомните: результат анализа – состояние пациента на момент забора биоматериала.

**– Расскажите о процедуре этого популярного в настоящее время анализа.**

– Процесс исследования начинается с забора образца биоматериала из носоглотки. Он считается более эффективным, нежели с задней стенки глотки. Затем выделяют РНК вируса. После этого с помощью отечественного набора идет постановка ПЦР, интерпретация результата. Процедура занимает пять-шесть часов.

**– Основная часть населения осознала: победить пандемию способен лишь коллективный иммунитет, но и к вакцинации каждый гражданин должен подходить грамотно. Следует ли перед прививкой проходить тестирование?**

– Следует. Если результат окажется положительным, вакцинация противопоказана.



**– Какие антиковидные исследования ведутся узбекистанскими учеными?**

– В данное время группа ученых занимается разработкой отечественной вакцины.

**– Изучению какой проблемы хотели бы посвятить жизнь?**

– Не хотела бы посвящать жизнь, которая не стоит на месте и требует разнообразия научных подходов, изучению одной проблемы. Время выдвигает новые актуальные темы. Хочу, чтобы мои исследования были связаны с биотехнологией, генетикой, статистикой.

В данный момент изучаем новое направление. Оно называется фудомика и связывает питание с передовыми технологиями. Говоря популярным языком, наука о пище, пищевой безопасности, рационе. Запущен проект, получивший в этом году финансирование и включающий разные исследования. На необходимость развития фудомики указывал Президент Республики Узбекистан. Задействованы разные группы ученых. Одна будет заниматься рационом, другая – изучать метаболиты... У нас разработана развернутая анкета, в которой отражается информация об образе жизни, питании, перенесенных заболеваниях, то есть позволяющая изучать население в целом.

Наш соотечественник Бекзод Хакимов, профессор из Дании, – соруководитель фундаментального проекта и мой (я независимый исследователь) научный наставник. Прекрасный человек, талантливый ученый. Постоянно меня направляет. Сыграл важную роль в моей судьбе. Убедил в нужности того, что делаю.

Бывает, на смену вдохновению приходят сомнения. Переживала нелегкий период, когда не понимала, правильно ли иду, своим ли путем, сравнивала себя со сверстникам. Казалось, именно у них мегапланы, мегаидеи и результаты, а я застряла в науке. Вот тут-то и понадобились аргументы суперученого.

**– Чем вас привлекает литература по генетике? Знание четырех языков помогает сбору нужной информации?**

– Есть много исследований, которые у нас еще не проведены, но возможны именно в узбекской популяции. Интересна связь генов с разными заболеваниями. Развитие генетики дает ответы на многие вопросы, которые несколько десятилетий, а то и лет назад ученые не могли получить.

Что касается знания языков, мой немецкий еще не на свободном уровне для чтения специальной литературы. Конечно, стараюсь этого уровня достичь. Английский – язык мировой науки. Хочешь быть постоянно в теме – обязан его знать.

**– Считаете ли, что исследования биохимиков могут повлиять на продолжительность жизни человека?**

– Не только биохимиков, но ученых-биологов разных направлений. Они могут способствовать улучшению жизни. Ведь под пристальным вниманием питание, сон, двигательная активность человека. Читая полезные научно-популярные статьи, люди получают возможность грамотно корректировать свое состояние.

**– Ментор стартап-акселератора... Звучит внушительно, по-современному.**

– Мне посчастливилось стать участницей программы «Бизнес-инкубатор» в Америке. Была там единственным представителем Узбекистана. Интенсивное обучение и стажировка в компании обогатили опытом в системе стартапов: как их запускать, вести не только на родине, но и за рубежом. Устраивали встречи с основателями компаний, где демонстрировали, как продукт презентуется инвесторам, каким образом стартапы «выстреливают», каких ошибок стоит остерегаться. Показывали, как за пять минут можно показать и продать идею. Каждый из нас имел обширный перечень вопросов, на которые помогали отвечать менторы. Проводились лекции по патентоведению. После такой подготовки меня пригласили быть ментором в стартап-акселераторе, единственном в Узбекистане в нашей сфере.

Кстати, первый научный стартап-акселератор был провальным (еще до стажировки в Америке): за шесть месяцев не смогли реализовать идею, то есть прийти в итоге к нужному конечному продукту. В науке это тяжело. И результат может быть непредсказуемым при самых благих целях. Повлияло и то, что команда, состоявшая из трех молодых ученых, не могла прийти к единому мнению.

Ходили в Институт эндокринологии, разговаривали с пациентами, анализировали их проблемы. Решили помочь диабетикам контролировать показатель сахара без глюкометров, которые не каждый может себе позволить. Да и регулярно прокалывать себе палец не каждый решится. По нашей задумке, глюкозу должны были определять тест-полоски, погруженные в урину. Особенно хотелось обеспечить нашим продуктом регионы, где уровень благосостояния и медицинской грамотности ниже, чем в столице. Благородная студенческая мечта – помочь, предостеречь, спасти – потерпела крах. Сначала полоска не работала, потом возникли проблемы со шкалой. Ушла уйма времени. К концу программы выяснилось: производство убыточно. Молодыми были (сейчас повзрослели на три года), все-таки в полной мере не просчитали трудоемкости и издержек проекта.

Теперь картина иная. Суть менторства – постоянная поддержка участников. Нужно так организовать деятельность стартаперов, чтобы за шесть месяцев идея реализовалась в продукт. Помочь написать или проверить готовые бизнес-планы, сделать закупки нужных реактивов за рубежом, если их нет в Узбекистане. Часто приходят участники, уже имеющие прототип продукта. Тогда задача – довести его до конца.

**– С благодарностью отзываясь о научных руководителях, главным наставником все-таки считаете маму, которая настояла на выборе в пользу биологии.**

– Не скрываю гордости, рассказывая о маме. Кандидат биологических наук Дилбар Далимова, завлабораторией биотехнологии Центра передовых технологий, лауреат премии Scopus Award, победившая в номинации «Женщина в науке», кавалер ордена «Саломатлик» II степени. Похоже, на работе она не помнит, что я ее дочь. Во всяком случае проявления родственных чувств я ни разу не заметила. Наоборот, требует гораздо больше, чем от остальных сотрудников. Всю жизнь она для меня пример. Не только в профессиональном становлении, но и в быту. Удивляюсь, как успевала заниматься нами (у меня две младшие сестры) и домом, сохраняя «научную форму», отправляя статьи в журналы и сборники, участвуя в конференциях. Это для меня до сих пор какая-то загадка.

Опубликовала статью в Nature, что равнозначно «Оскару» для актера. В Узбекистане такие публикации есть только у двух женщин. Честно признаюсь, мне бы тоже хотелось. Когда-нибудь... Кстати, интерес к популяционной генетике у меня от моей любимой Дилбар Акбаровны, потрясающего ученого, необыкновенно организованного человека, замечательной мамы.

**– В преддверии 30-летия государственной независимости Республики Узбекистан не могу не спросить о роли суверенитета в вашей жизни.**

– Так как я моложе Независимости, сравнивать «до» и «после» по личным наблюдениям не могу. Считаю, что для будущих ученых это возможность учиться за рубежом (причем и за счет государства) и плодотворные международные контакты. Суверенитет выступил и строителем моста, соединяющего науку и производство, стимулировал развитие экономики.

То внимание, которое уделяется у нас гармоничному развитию молодежи, ко многому обязывает. Хочется ответить родной стране на заботу самоотверженным трудом, внести свой вклад в ее процветание.

**Беседовала**
**Людмила ПОЛОНСКАЯ**

***Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Samarqand viloyati "Kelajak liderlari" hamda "Samarqand ilmli qizlari" klublari a’zolari uchun o‘quv-seminar tashkil etildi.***

***Mazkur seminarni o‘tkazishdan asosiy maqsad yoshlarni Qonunchilik palatasi faoliyati bilan yaqindan tanishtirish, ularning qonun loyihalari ustida ishlay olish, o‘z fikrlari va takliflarini ifoda etish qobiliyatlarini shakllantirish, eng muhimi, bu kabi uchrashuvlar orqali yoshlar orasidan bo‘lajak deputatlarni tayyorlashdan iboratdir.***

# "KELAJAK LIDERLARI" QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATI BILAN YAQINDAN TANISHDI

Qayd etilganidek, yoshlar keng ko‘lamli islohotlarni samarali amalga oshirishda hal qiluvchi kuch bo‘lib maydonga chiqmoqda. Aynan zamonaviy bilim olgan, ilg‘or kasb-hunarlarni, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o‘g‘il-qizlarimiz mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishda yetakchi o‘rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, yurtimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan.

Xususan, hozirgi kungacha yurtimizda yoshlarga oid 40 dan ortiq qonun qabul qilinib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjat ratifikatsiya qilingan. Ularning sifatli ijrosi ustidan muntazam ta’sirchan parlament nazorati o‘rnatilgan. Zotan, O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol shaxslar sifatida tarbiyalash mamlakat rivoji uchun muhim omildir.

Uchrashuv davomida 2020-yilda yoshlarning siyosiy faolligini oshirish va ularni qonun ijodkorligi jarayoniga keng jalb qilish maqsadida Parlamentning ikki palatasida alohida Yoshlar parlamentlari tashkil etilgani va ularga jami 350 nafar faol yosh saylangani qayd etildi.

Ayni vaqtda ular qonunchilik va qonun ijodkorligi jarayoniga yoshlarni jalb qilish va qabul qilinayotgan qonunlarni yosh avlod orasida keng targ‘ib qilish orqali yigit-qizlarning parlament hayotiga daxldorligini oshirishda faol ishtirok etayotgani ta’kidlandi.

2021-yilning birinchi yarmida Qonunchilik palatasiga kiritilgan 19 ta qonun loyihasiga Yoshlar parlamenti tomonidan yoshlarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga oid takliflar tayyorlandi. Yosh avlodning huquqiy ongi va savodxonligini oshirish, jamiyatda yoshlarni siyosiy faol qatlamga aylantirish hamda ularning siyosiy-huquqiy bilim va ko‘nikmalarini amalda boyitishga qaratilgan 53 ta turli tadbirlar, o‘quv seminarlari va konferensiyalar tashkil etildi.

Shuningdek, Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya hamda Yoshlar parlamentining qonun loyihalariga yoshlarning huquq va manfaatidan kelib chiqqan holda o‘z xulosasini qo‘mitalarga taqdim etish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Hozir Yoshlar parlamenti a’zolari hududlar bo‘yicha "Ustoz-shogird" an’anasiga muvofiq parlament deputatlariga biriktirilib, ular bilan birgalikda faoliyat yuritmoqda. Natijada o‘tgan qisqa davr ichida Yoshlar parlamenti a’zolari Qonunchilik palatasi deputatlari bilan birgalikda 68 ta o‘rganish tadbirini amalga oshirdi.

Qizg‘in kechgan munozaralarda deputatlarning qonun ijodkorligi jarayoni, nazorat-tahlil tadbirlari xususida batafsil so‘z yuritilib, yoshlarga parlament tomonidan qonun loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilish amaliyoti, jamiyatimizda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, ularning huquq va burchlari, mamlakatimizda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, yoshlarga doir qonunlarning mazmun-mohiyati haqida tushunchalar berildi.

Tegishli soha vakillari, deputatlar tomonidan o‘tkaziladigan o‘quv-seminarlar Samarqand viloyati "Kelajak liderlari" hamda "Samarqand ilmli qizlari" klublari a’zolari uchun haqiqiy tajriba maktabiga aylandi.

O‘quv-seminarda yosh yigit-qizlar o‘z fikr-mulohazalari, takliflari bilan faol ishtirok etgan holda, palata faoliyati, partiya dasturiy maqsadlari va fraksiyada amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida o‘zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob olishdi.

**Nurillo NASRIYEV,**
**O‘zA muxbiri**

# YANGI O‘ZBEKISTON VA YANGI AVLOD YOSHLARI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Yoshlarni bilimli, oliy ma’lumotli qilish maqsadida hozirgi kunda oliy o‘quv yurtlari soni 141 taga yetkazilgan bo‘lsa-da, yurtimizda nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalarining filiallari ham ko‘payib bormoqda.

Ushbu tizim tubdan isloh etilar ekan, oxirgi yillarda oshib borayotgan qabul kvotalari, imtiyoz asosidagi qabullar, ehtiyojmand oilalar farzandlari uchun ajratilayotgan alohida grantlar – bularning barchasi yoshlar uchun, ularning farovon hayoti uchun ochib berilayotgan imkoniyatlar eshigidir.

Bugun O‘zbekiston mana shunday kuchli islohotlar bilan o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga dadil qadam qo‘ydi. Hayotbaxsh islohotlarning samaralari nafaqat oliy ta’limda, balki barcha sohalarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Shuni qayd etish joizki, ilm-fanga ishtiyoqmand farzandlarimizni buyuk bobolarimizning munosib izdoshlari va davomchilari etib tarbiyalash biz uchun ham qarz, ham farz. Zero, davlatimiz rahbarining ta’kidi bilan aytganda, o‘z Vatanini, ona xalqini ravnaq toptirish uchun o‘zini ayamasdan mehnat qilish: bu – jasorat va mardlik, bu – ona yurtga muhabbat va sadoqat, bu – to‘g‘ri tarbiya va amaliy namuna demakdir.

Bugungi kunda qancha-qancha bilimli, chet tillarni, zamonaviy boshqaruv usullarini yaxshi biladigan navqiron yoshlar hayotimizga kirib kelmoqda. Ular – bizning umidimiz, ertangi kunimiz. Shuning uchun yoshlarga keng yo‘l ochib berish, ehtiyoj va manfaatlarini ta’minlash, qobiliyat va iste’dodini ro‘yobga chiqarish, hayotda o‘z o‘rnini topishiga yordam berish davlatimiz, Prezidentimiz e’tibori markazida ekanligi kuchimizga kuch qo‘shmoqda.

Faxrlanarlisi, hozir jahon miqyosida yurtimiz haqida so‘z ketganda "Yangi O‘zbekiston" iborasi tilga olinmoqda. Bu keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e’tirofidir. Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilayotgan ekan, ulug‘ yo‘lda Prezidentimizga yelkadosh, davlatimizga suyanch bo‘lish maqsadi qalblarimizda jo‘sh urmoqda.

Vatanimiz mustaqilligining qutlug‘ 30 yilligi arafasida kelajak avlodlarning kamoli yo‘lida amalga oshirilayotgan



ezgu ishlarni faxr bilan tilga olamiz. Yurtimizda Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar masalalari bo‘yicha idoralararo kengash tashkil etilgani, Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari, Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tuzilgani, yigit-qizlarning tashabbus va g‘oyalari to‘laqonli qo‘llab-quvvatlanib kelinayotgani xayrli ishlar izchil rivojlanayotganidan dalolatdir.

Mamlakatimizda yoshlarning barcha sohalarda o‘z iqtidori va salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Ayniqsa, ta’lim muassasalarini tamomlab, mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan yigit-qizlarni munosib ish va daromad manbai bilan ta’minlash, ularga zamonaviy kasb-hunarlar, IT texnologiyalarni o‘rgatish, tadbirkorlikka keng jalb etish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani e’tiborga loyiq.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 13-iyuldagi "Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi farmoni yoshlarga oid davlat siyosatining yangi, muhim bosqichga ko‘tarilganini ko‘rsatdi. Tarixiy hujjatning har bir bandida O‘zbekiston yoshlarining mehnat faoliyati, ta’lim olishi, oila va jamiyatdagi maqsadlarini amalga oshirishiga ko‘mak berish, yosh avlod manfaatlarining chuqur himoyasi o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekistonda yoshlarni bilimli va malakali qilib tarbiyalash, jahon standartlariga mos keluvchi ilg‘or kadrlar etib yetishtirish uchun puxta o‘ylangan, uzoq muddatli izchil tizim amalga oshirilib, yosh avlodga katta imkoniyatlar berilmoqda. Yangi o‘quv yilidan 22-28 foizli 3 yillik ta’lim krediti 14 foizga tushirilib, 7 yilga beriladigan bo‘ldi. Kreditni qoplashga yo‘naltiriladigan mablag‘lar esa soliqdan ozod qilinadi. Dunyo miqyosida TOP-1000 talikka kirgan oliy ta’lim muassasalarini bitirgan va chetda ilmiy ish qilgan yosh mutaxassislarga qo‘shimcha haq to‘lash tizimi joriy etiladi. Yoshlar mamlakat taraqqiyoti modeliga aylanib borayotgan bugungi kunda Prezidentimiz e’tibori va rag‘batidan kuch olgan, yangi tashabbus va maqsadlar sari qadam qo‘yayotgan yosh avlod yurtimiz istiqboli, yorug‘ kelajagimiz bunyodkori, degan e’tirofga munosib mehnat qilishi kerak.

Qolaversa, dunyo miqyosida raqobat keskin tus olayotgan davr faqat zamonaviy ilm-fan va innovatsiya yutuqlari bilan qurollanish lozimligini ko‘rsatadi. Bu borada yoshlarning ta’lim-tarbiyasi, ona Vatanga, istiqlol g‘oyalariga sadoqati, milliy qadriyatlarga ehtiromi, buyuk ajdodlarga munosib vorislik e’tiqodi bizni Yangi O‘zbekiston istiqboliga yetaklaydi, albatta.

# 1-SENTABR – MUSTAQILLIK KUNI MUBORAK BO'LSIN!

Aziz yurtdoshlar, o'qituvchi-murabbiylar va talabalar! Sizlarni ushbu eng ulug', eng aziz bayramimiz bilan qutlar ekanmiz, mamlakatimizda Uchinchi Renessans davrining poydevorini barpo etishdek ulkan mas'uliyatli ishda zafarlar tilab qolamiz. Ilm o'rganishdan hech qachon tolmang. Zero, Vatanimiz kelajagi ilm-ma'rifatli yoshlar qo'lidadir!

# FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI JAMOASI




®





ВСЕ КОМПОНЕНТЫ ПРИПРАВ НАТУРАЛЬНЫЕ
LTZ
ГАРАНТИЯ КАЧЕСТВА
СПЕЦИИ И ПРИПРАВЫ






*Bu yil hur O'zbekistonimiz o'zining 30 yillik to'yini keng nishonlamoqda. Fursatdan foydalanib, barchangizni ushbu sana bilan muborakbod etamiz. Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin! Xonadoningizdan hech qachon qut-baraka arimasin!*




**Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi "LAZZATLI TAOM ZIRAVORLARI" mas'uliyati cheklangan jamiyati jamoasi**

®

MULOHAZA

*Bugungi kun o‘zbek san’ati haqida ko‘p yozildi, gapirildi. Men ham ayrim mulohazalarim bilan o‘rtoqlashmoqchiman.*

*Kino. Har janrdagi filmlarni ekranga olib chiqdik: tarixiy, romantik, komediya... Milliardlab pul ajratildi, festivallarda yutuqlarga erishdik. Natijada ilgarilagandek bo‘ldik. Baribir, tomoshabinlar siyrak. Xo‘sh, mag‘zi butun, umri uzoq kinolarning siri nimada? Jahon tajribasi misolida, birgalikda mulohaza qilsak.*



# Afsonadan “modern”gacha

**“Yashil maskan” filmi: “Oskar” mukofoti sovrindori (2000-yil). Rejissyor: Frenk Darabont.** Bosh qahramon — 1935-yillar Amerikadagi qamoqxonaning o‘limga hukm qilinganlar bo‘limi nazoratchilari boshlig‘i (Tom Henks ijrosida). Ismi Pol... Film tasvirga olinganiga yigirma yildan oshibdiki, ohori to‘kilmagan. Filmda, aksar kinolardagi kabi mayda mavzular uchramaydi. Qayta-qayta ko‘rganing sari o‘zing uchun yangi bir narsani kashf qilaverasan, kishi. Qanday qilib bu darajaga erishish mumkin?

Asar yaratishda, xususan kinoda bir qoida bor: voqelik qanday boshlangan bo‘lsa, o‘sha holda tugashi kerak. Albatta, sun’iylikni chetga surib. Ayni filmda ham shu qoidaga amal qilingan. Ayrim kadrlarni keltiraman: “Bolalarning la’nati qotili!” degan ayb bilan qamalgan Jon Koffe (Michayel Klarke Dunkan ijrosida) badani chandiqlarga to‘la, birorta xat-hujjatda nomi yo‘q, doim bitta yupun kiyimda yuradigan inson. Uni qotillikda ayblashganda, ikkala qizaloqqa yordam bermoqchiligini, ammo ulgurmaganini bot-bot takrorlaydi. Bemorlarning dardini o‘ziga olib, davolaydi. Hatto o‘likni (sichqon) tiriltiradi. Odamlar ko‘nglidan nima o‘tkazyapti, nima bo‘ladi, kishilarning uyida nima bor... barini sezib turadi.

Voqealar rivoji davomida Jonning beaybligini bilgan qamoqxona boshlig‘i Pol unga hamdard o‘laroq qamoqxonadan qochirib yubormoqchi bo‘ladi. Jon Koffening javobi esa, umuman boshqacha: “Men o‘lishni va hammasiga chek qo‘yishni istayman. Men charchadim, boss. Yomg‘irda qolgan chumchuqdek yolg‘iz yo‘llarda sargardonlikdan charchadim. Hech qachon yuragimni yozib, dardlashadigan do‘stim bo‘lmaganidan charchadim. Qayerdan kelyapmiz, qayoqqa ketyapmiz, nima uchun?.. Shafqatsiz va zolim odamlardan, har kuni eshitganim, his qilib turganim, dunyoning og‘riqlaridan charchadim. Tushunyapsanmi?!”. Oqibat tuhmatga qolib, odamlar ko‘zida shafqatsiz qotil sifatida o‘lim topadi...



**“Sheryurak” filmi (rejissyor: Mel Gibson).**

Mazkur kartina 1995-yil suratga olingan. “Oskar” mukofoti sovrindori. Bosh qahramon Uillim Uols rolida — Mel Gibson. Kino lavhalariga ortiqcha to‘xtalmayman, Uilliam Uolsning “...ozodli-ik!” degan hayqirishini eslashning o‘zi kifoya. Bizdan farqli ravishda ijodkorlar Shotlandiya afsonasini sal kam farishta qilib ko‘rsatmaydi, sun’iy jang sahnalarini yaratmaydi, qilich tegib ketmasligi uchun balet tushayotgandek harakat qilmaydi... Borini — bor, yo‘g‘ini — yo‘q va buni hamma to‘g‘ri tushunadi.

Filmga ilm-fanning aralashuvi ham katta muvaffaqiyat olib keladi, menimcha. Masalan, “Tafakkur o‘yini”ni olaylik. Rejissyor: Ron Hovard. Bosh rolda: Rassel Krou. Film 1995-yilgi “Nobel” mukofoti sovrindori Jon Neshning hayoti haqida. Ilm-fanning o‘rni qanday bunda? Matematik Nesh shizofreniya kasalligiga chalingan bo‘ladi. Yomon tomoni bu kasallikka chalingan insonlar qaysi odam haqiqiy, qaysi biri sarob ekanligini ajrata olmaydi... Nesh nazariyasi xalqaro tijorat bitimlarida, mehnat ta’minoti va kasaba uyushmalari munosabatlarida o‘z aksini topdi.



**Teatr.** Kunora teatrga borib, spektakllarni ko‘rib, qoyillatgan joyim yo‘q. Ammo bir nechta spektaklni takror ko‘rib turaman. Va shunday mavzudagi spektakllar ko‘paysa deyman.

Erkin Xushvaqtov asari asosida suratga olingan “Qirmizi olma” spektakli. Sahnalashtiruvchi rejissyor Munavvara Abdullayeva. Juda samimiy va sodda sahna asari. Aytgancha, eng murakkab va qiyin ish ham soddalikda bo‘ladi, aslan. Nega? Deylik siz asar yozdingiz. U “Nobel” mukofotini olsa, olim, arboblar e’tirof qilsa-yu to‘rt-besh kishidan boshqa hech kim tushunmasa... Yozganingiz soddaligidan har qanday odamning ich-ichiga “singib” ketsa, keng afkor-ommaning qizg‘in muhokamasiga, yangicha yondashuvga, odmi, lekin olamshumul g‘oyalarga sabab bo‘lsa, shuning o‘zi ulkan unvon emasmikan?!

“Qirmizi olma”da dramaturgning ishini e’tirof etmaslikning iloji yo‘q. Kichik bir rivoyatni zamonaviy hayotga moslashtirib, etika-yu estetikaning “tarozi”sini teng ushlab yozish...

Shuncha gapni aytdim, rivoyatni keltirmasam bo‘lmas. Rivoyat: “Bir yigit tomorqasidagi ariqda yuzini yuvib tursa, qirmizi olma oqib kelayotganini ko‘rib qoladi va bir tishlam tishlaydi. Shunda, olmaning egasidan iznsiz tishlagani yodiga tushib, roziligini olish maqsadida suv oqib kelayotgan tomonga qarab yuradi. Uzoq yurgan yigit bog‘bonning oldiga kelib, bo‘lgan voqeani tushuntiradi. Bog‘bon bog‘ uniki emasligi, egasining uyigacha bir kecha-kunduz yurish kerakligini aytadi va yo‘lni ko‘rsatadi. Yigit bog‘ egasinikiga yetib borgach, olmani halol etishini so‘raydi va evaziga qanday vazifa bo‘lsa bajarishini aytadi. Bog‘ning egasi shart qo‘yadi: ko‘zi ko‘r, qulog‘i kar, oyog‘i cho‘loq, tili soqov bitta-yu bitta qiziga uylansagina luqmani halol etishini aytadi. Yigit shunda yeganim halol bo‘larkan, deydi-yu uylanadi. Chimildiqda esa, kun desa ko‘zi, oy desa og‘zi bor qiz turadi. Yigit qaynotasining gapini aytganda, qiz: “Ko‘zim “ko‘r”ligi — Qur’ondan boshqasini ko‘rmaganim, “soqov”ligim — Allohning zikridan boshqasini so‘zlamaganim, oyog‘im “cho‘loq”ligi — Allohni rozi qilishdan boshqa yo‘ldan yurmaganim, qulog‘im “kar”ligi — azondan boshqasini eshitmaganim”, deydi. Bu insonlarning farzandi esa — Imomi A’zam hazratlari hisoblanadi”.

Endi spektaklga qaytsam... Yo‘q, yaxshisi o‘zingiz ko‘ring, shunisi qiziqroq.

**Raqs.** San’at asarlarida xalqning kelib chiqishi, yashash tarzi, muhiti, hatto ob-havosini badiiylashtirish ham katta muvaffaqiyat kaliti. Balki shunday narsalarga e’tibor berilmay qo‘yilgani uchundir, raqslar oldingiday darajaga chiqmay, raqqosalarimiz bir “o‘yinchi” sifatida qolib ketayotgandir. Shunday raqslardan bir nechta misol keltirsam.

Barchamiz qaltirab raqsga tushadigan “Lazgi”. Bu raqs yaratilish tarixi haqida bir nechta taxminlar bor. Birinchisi: qadimda Xorazm o‘lkasi juda sovuq mintaqa bo‘lgan va o‘n oy davomida qish fasli hukm surgan. Shunda odamlar qaltiroq qo‘l-oyoqlari bilan o‘tirib-turib, sakrab turli harakatlarni bajaradi va shu asnoda raqs yaratiladi. Ikkinchi ma’lumot, rivoyat: insonga burnidan havo berib, jon kiritilganda dastlab, qo‘llari titray boshlaydi va sekinlik bilan boshqa tana a’zolari ham qaltiraydi-da jon kiradi. Raqqoslar esa buni raqs orqali ifodalashga urinadi.

Navbatdagi raqsni “Lazgi” bilan yonma-yon qo‘yish biroz g‘alati. Albatta, tarixi, ahamiyati jihatidan bir-biriga teskari raqslar. Bu raqsga Amerika qullari asos solgan. Qullar qo‘llari kishanlangan holda jang qilishni o‘rganadi va isyon qiladi. Aslida jang uslubi bo‘lgan ushbu raqs — “Brek dans” deb ataladi.

Yuqoridagi misollarni uzoq davom ettirish mumkin. Nafaqat san’at, balki badiiy adabiyot bilan ham. Ko‘plab mavzular vaqt o‘tishi bilan eskiradi. Men yuqorida eskirmaydigan mavzularni misol keltirdim. Bular: diniy ta’limot, afsona va rivoyatlar. Biror asarga aynan shunday mavzular asos qilib olinsa, u, albatta, muxlislar tomonidan e’tirof etiladi. To‘g‘ri, bunday asar yaratish uchun ancha ter to‘kish kerak. Yillar, balki butun umr ketar. Nachora, tarix har kimning ham nomini o‘zida saqlamaydi.

**Bunyod ABDULLAYEV**

Mustaqillik bayramingiz qutlug' bo'lsin!

Aziz vatandoshlar, hurmatli yoshlar! Sizlarni mustaqilligimizning 30 yilligi bilan chin qalbdan tabriklaymiz!

Yangi O'zbekistonni yangicha va erkin fikrlaydigan, intiluvchan insonlar yaratadi. Bunday sharafli vazifani amalga oshirishda sizlarga ulkan zafarlar yor bo'lsin!




YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана

MUASSIS:
O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI

BOSH MUHARRIR:
Hamza ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KOTIB:
Yelena KALININA

NAVBATCHI MUHARRIR:
Iqbol PARDAYEVA

MUSAHHIH:
Shahribonu RAHMATOVA

DIZAYNER:
Zafar RO'ZIYEV

Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

TAHRIRIYAT MANZILI:
100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.

Telefonlar:
(71) 233-22-16.
(71) 236-79-95.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.
Hajmi – 3 bosma taboq.
**Korxona manzili:** Buyuk Turon ko'chasi, 41.
**Indekslar: 203, 3203**
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma G-855
Adadi – 726
**Bosishga topshirish vaqti – 21.00**
**Topshirildi** – 20.00

1 2 3 4 5 6